

ZAMONAVIY KIYIM-KECHAK NOMLARINING O'ZBEK TILIGA KIRIB KELISHI

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI
UNIVERSITETI TALABASI
TO'YCHIYEVA MADINAXON

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy kiyim-kechak nomlarining o'zbek tiliga kirib kelishi, moda industriyasining rivojlanishi natijasida turli tillardagi kiyim nomlarining tilimizda o'rnatilgan qolayotgan so'zlarning lingvistik tahlili hamda yoshlar nutqida keng qo'llanilayotgan bu kabi so'zlarning negizi, kelib chiqishi chuqur tahlil qilinadi. Hozirgi kunda globallashtirish natijasida ingliz va rus tillaridan kirib kelayotgan "hoodie", "oversize", "crop-top", "sneakers", "look", "trend" kabi terminlarning tilimizda ishlatilishi, shuningdek, bunday o'zlashmalarning fonetik va semantik moslashuvi tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR: Moda terminlari, globallashtirish, kiyim-kechak leksikasi, o'zlashma so'zlar, internet, moda industriyasi.

KIRISH

Bilamizki, hozirgi globallashtirish davrida dunyo xalqlari o'rtasida madaniy, iqtisodiy hamda ijtimoiy aloqalar tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida zamonaviylik, moda, trend kabi tushunchalar ommalashdi. Natijada, o'zbek tilimizda ham so'nggi yillarda xorijiy moda terminlari, kiyim-kechak turlarining yangi so'zlari faol qo'llanilmoqda. Bu jarayonda internet, ijtimoiy tarmoqlar, reklama sanoati hamda moda ko'rgazmalarining ta'siri omili juda katta. Tilshunos olimlarimizning ta'kidlashicha, hozirgi kunda o'zbek tilining eng tez rivojlanayotgan qatlami bu terminologiyadir. Tilimizda bunday o'zlashmalarning ko'payishi lug'at boyligimizni kengaytirishi ijobiy, albatta, lekin ba'zi hollarda bu o'sish milliy so'zlarimizning ishlatilmasligi, bora-bora iste'moldan chiqishiga ham sabab bo'lmoqda.

ASOSIY QISM

Zamonaviy kiyim-kechak nomlarining o'zbek tiliga kirib kelishida bir qancha omillar mavjud. Birinchidan, globallashtirish jarayoni, internet va ijtimoiy tarmoqlar ning rivojlanishi, xorijiy brendlarning ommalashuvi, yoshlar madaniyatining o'zgarishi, moda blogerlari va reklama ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan holatdir. Bugungi kunda yoshlar nutqida "oversize", "hoodie", "street style", "look", "trend", "shopping" kabi birliklar tez-tez uchratamiz. Ayniqsa, Instagram, Tik Tok, va Telegram platformalari modaterminlarining ommalashishiga xizmat qilmoqda. Tilshunos Sevara Salohiddinova inglizcha o'zlashmalar haqida quyidagicha fikr bildirgan; "Globallashtirish jarayonida ingliz tilidan o'zbek tili leksikasiga kirib kelayotgan o'zlashmalar tilning funksional- uslubiy doirasini kengaytirmoqda". Kiyim- kechak terminlarini guruhlariga ajratib tahlil qilishimiz mumkin.

hoodie” o‘zbekcha nomi ”hudi” kapyushonli keng sviter ma’nosida, ”oversayz” katta o‘lchamdagi kiyim, ”krop-top” tepa qism uchun kiyiladigan qisqa kofta, ”snikers” sport oyoq kiyimi, ”bomber kurtka” qisqa sport uslubidagi kurtka, ” luk” tashqi ko‘rinish obrazi uchun ishlatiladigan so‘z, ”trend” ma’lum bir ommabop yo‘nalish ma’nosida ishlatiladigan so‘z . Mazkur terminlarning ko‘p qismi ingliz tilidan kirib kelgan bo‘lsa, ayrimlari rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar hisoblanadi.

Bunday o‘zlashma kiyim nomlari tilimizga kirib kelar ekan, ma’lum bir o‘zgarishlarga uchraydi, ”hoodie-hudi”, ”oversize-oversayz” va h.k. Bu o‘zgarish jarayoni tilimizda fonetik adaptatsiya deyiladi. Olimlarning fikricha, o‘zlashma so‘zlar mahalliy talaffuz qoidalariga moslashib boradi. Semantik jihatdan ham olib qaraydigan bo‘lsak, masalan, ”look” so‘zi umumiy ”qarash” ma’nosini bildirsa, o‘zbek yoshlari nutqida ko‘pincha ”kiyinish uslubi” ma’nosida ko‘p uchramiz. Tan olishimiz kerakki, ayniqsa, talabalar va ijtimoiy tarmoqning faol foydalanuvchilari nutqida bunday birliklarning kundalik muloqotda keng ishlatilib borishi Reddit platformasida ham keng muhokamalarga ham sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, tilshunoslar bu jarayon milliy leksikamizga jiddiy ta’sir qilishini ta’kidlaydilar. Shuning uchun, bunday o‘zlashma so‘zlar uchun o‘zbekcha muqobillarni yaratish zarur deb hisoblaydilar. Masalan, ”look” so‘zi uchun ”obraz”, ”trend” so‘ziga ’yo‘nalish”, ”street style” so‘ziga ”ko‘cha uslubi”, ”shopping bag” so‘ziga ”xarid sumkasi” kabi muqobillarni ishlatish milliy tilimizga yetishi mumkin bo‘lgan ta’sirlarni kamaytiradi. Biroq ayrim terminlar allaqachon xalq tilida faol qollanayotgani sababli ularni to‘liq almashtirish qiyin bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy kiyim- kechak nomlarining o‘zbek tiliga kirib kelishi tabiiy lingvistik jarayon hisoblanadi. Globallashuv va internet texnologiyalari natijasida inglizcha moda terminlari kundalik nutqqa chuqur singib bormoqda. Ushbu o‘zlashmalar til boyligini oshirayotgan bo‘lsa-da, milliy til me’yorlarini saqlash va imkon qadar o‘zbekcha muqobillarni yaratish muhim vazifa sanaladi. Kelgusida moda terminlarining lingvistik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish o‘zbek tilshunosligi uchun dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.Ortiqova G. “Ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan bir qancha neologizmlar tahlili”.
2. universalpublishings.com
- 2.Uzokova N. “O‘zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarning tarjima strategiyalari”.
3. incop.org
- 3.Boymurodova L. “Expression of Clothing Names in Uzbek”.
4. 4.Hasanov E. “Ingliz tili va o‘zbek tiliga xos bo‘lgan ayrim biznes terminlarining tadqiqi”.
5. in-academy.uz